Bilim
Innovatsiya
Barqaror rivojlanish


Oktabr
№10, 2026

AGROBIZNES, FAN VA TEXNOLOGIYALAR

ILMIY-AMALIY
ELEKTRON
JURNALI

Агробизнес, наука и технологии

Agribusiness, science and technology



№ 083688

ISSN:
3060-5245

Toshkent-2026

Platform & workflow by
OJS / PKP

BOSH MUHARRIR
Oblomuradov Narzullo Naimovich – i.f.d. (DSc), professor.
Bosh muharrir o'rinbosarlari:
Islamov Soxib Yaxshibekovich – q.x.f.d. (DSc), professor.
Sultonov Kamoliddin Sadriddinovich – q.x.f.d. (DSc), professor.
Farmonov To'lqin Xayitmurodovich – i.f.d. (DSc), professor.
Muharrir:
Beglayev Uchqun Xurramovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent.
Tahrir hay'atining xalqaro a'zolari:
Kusainov Xalel Xaymullayevich – i.f.d. professor (Qozog'iston davlat texnologiya universiteti)
Vilija Aleknevičienė – i.f.d. professor (Universitet Vitovta Velikogo)
Gilbert Ludwig – professor, (Jamk University of Applied Sciences)
Bobojonov Ixtiyor Baxtiyorovich – i.f.d. professor (Germaniyaning Leybnits nomidagi Markaziy Osiyoda qishloq xo'jaligini rivojlantirish instituti (IAMO))
Daiva Makutenene – professor, (Vitautas Magnus universiteti, Litva)
Xaitboyeva Nargiza Alikulovna - i.f.d. dotsent (Tojikiston davlat huquq, biznes va siyosat universiteti)
Tahrir hay'ati:
08.00.00-Iqtisodiyot fanlari:
Gulyamov Saidasror Saidaxmedovich – i.f.d. (DSc), professor;
Saidov Muxammad-Ali Xakimovich – i.f.d. (DSc), professor;
Rustamova Iroda Baxramjanovna – i.f.d. (DSc), professor;
Ochilov Ilhom Sayitqulovich – i.f.d. (DSc), professor;
Askarov Nazimjon Niyozovich – i.f.d. (DSc), professor;
Abdullayev Altinbek Yangibayevich – i.f.d. (DSc), professor;
Boltayev Abror Sayitmuradovich – i.f.d. (DSc), dotsent;
Abduvasikov Abduaziz Abdulazizovich – i.f.n. professor;
Mamadiyarov Dilshad Uralovich – i.f.n. dotsent;
Achilov Mashrab Ulug'bekovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Galimova Feryuza Rafikovna – i.f.n. dotsent;
Odilova Dilnozaxon Barnayevna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Yangiboyev Dilshod G'ulomovich – i.f.f.d. (PhD);
Saidova Dildora Nurmatovna – i.f.n. dotsent;
Dexkanova Nilufar Sagdullayevna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Roziqov Jahongir Mustaqim o'g'li – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Boltayev Nurali Shiramatovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Ibragimova Madina Ismoilovna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Javliyev Nuriddin Bektemir o'g'li – i.f.f.d. (PhD).

06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari:
Shokirov Alisher Djuraboyevich – q.x.f.d. (DSc), professor;
Mardanov Husniddin Xolbozorovich – q.x.f.d. (DSc);
Abdiyev Fozil Rashidovich – q.x.f.d. (DSc);
Sattorov Maqsud Axtamovich – q.x.f.d. (DSc);
Yuldashov Nurbek Ergashovich – v.f.d. (DSc);
Xalmirzayev Dilmurad Kamilovich – q.x.f.d. (DSc), dotsent;
Namazov Ixtiyor Choriyevich – q.x.f.d. (DSc), professor;
Xudayqulov Jonibek Bozarovich – q.x.f.d. (DSc), professor;
Eshonqulov Jamoliddin Saporboy o'g'li – q.x.f.d. (DSc), professor;
Abdullayev Anvar Kodirullayevich – b.f.n., katta ilmiy xodim;
Atabayev Ma'ruf Maxmudovich – q.x.f.n. professor;
Safarov Asqar Asadullayevich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;
Mustafakulov Davron Mamatqulovich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;
Kasimov Botir Sadriddinovich – q.x.f.f.d. (PhD);
Akramov Umidilla Ikramdjanovich – q.x.f.n. dotsent;
Elboboyev Abdug'ani Shuxrat o'g'li – q.x.f.f.d. (PhD);
Muxammadov Yo'ldoshbek Akmal o'g'li – q.x.f.f.d. (PhD);
Maxmudova Shaxnoza Abdufattaxovna – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;
Idrisov Xusanjon Abdujabborovich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent.

MUASSIS
Toshkent davlat agrar universiteti

ALOQA UCHUN MA'LUMOTLAR
Manzil: Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko'chasi, 2-uy.
Jurnalning telegram manzili: t.me/agrobiznes_elektronjurnal
E-mail: licht-1989@mail.ru
Jurnalning rasmiy sayti: https://www.agrobiznesjournal.uz
Tel: +(998) 93 439 30 00

JURNALNING ILMIYLIGI:

Ma'lumot uchun, OAK Rayosatining 30.11.2024-yildagi №364/5-sonli qarori bilan 08.00.00-Iqtisodiyot fanlari bo'yicha, 08.05.2025-yildagi №370/5-sonli qarori bilan 06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga kiritilgan.

Elektron nashr, 1107 sahifa.
2026-yil, №10. oktabr.

Jurnal har oyda bir marotaba elektron shaklda jurnalning rasmiy sayti orqali nashr etiladi.

2026-yil, oktabr.
№10-son.
ISSN: 3060-5245

MUNDARIJA

IQTISODIYOT FANLARI

KONSTANTIN IVANOVICH KURPAYANIDI
Green energy transition in Central Asia: capacity growth, technological diversification and system constraints.....11
TURSUNKULOVA GULCHIROY BURXONOVNA
Meva-sabzavotchilik korxonalarida biologik aktivlarni hisobga olishni xalqaro standartlar asosida takomillashtirish.....24
MO‘MINOV ABDUVALI AKBARALIEVICH, DJO‘RAEV MUQIMJON YAQUBJONOVICH
Tritikale seleksiyasida molekulyar markerlardan foydalanishning iqtisodiy samaradorligi: QTL, SSR, SNP va KASP yondashuvlari asosida.....30
KARIMOV NURBEK DEXKANOVICH
Yeryong‘oq yetishtirishda oqqanotga qarshi kimyoviy himoya tadbirlarining iqtisodiy samaradorligini baholash.....43
SAYIPOV BEGZOD RAHIMOVICH
Valyuta kursi tebranishlari indeksini hisoblash va baholash.....53
KARIMOV NURBEK DEXKANOVICH
Yeryong‘oq ekinlarida o‘rgimchak kanaga qarshi kimyoviy kurash choralarining iqtisodiy samaradorligini baholash.....63
SHOMURODOV TOHIR BOYMUROD O‘G‘LI
Oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashda aholi daromadlarining o‘rni haqidagi nazariy yondashuvlar.....73
МУСТАФОКУЛОВА ЗАРИФА
Сравнительный анализ лидерства в условиях кризиса и роль молодых лидеров в развитии.....80
BOZOROVA MUHABBAT TOXTAYEVNA
Korxonalarda davr xarajatlarining iqtisodiy mohiyati, mazmuni va tasnifi.....87
RAXIMJONOVA SHOHSANAM BAXODIROVNA
Davlat-xususiy sheriklik asosida ijtimoiy soha infratuzilmasini rivojlantirishda "Value for Money" (VfM) baholash mexanizmini takomillashtirish.....95
QURBANOVA OYDIN TO‘LQIN QIZI
Ishlab chiqarish korxonalari raqobatbardoshligini baholashning integral ko‘rsatkichini shakllantirish.....101
SADIKOVA SHOHIDA OBIDQUL QIZI
O‘zbekistonda piyoz yetishtirishning iqtisodiy o‘rni va samaradorligi.....108
XAKIMOV RASHID
Oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlashda sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalarning o‘rni va samaradorligi.....119
TOJIMATOV IZZATBEK IKROMALI O‘G‘LI
Don mahsulotlari ishlab chiqarish korxonalarida intellektual marketing strategiyasini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish.....133
SODIQOVA GAVHAR XAYRULLA QIZI
Xodimlarni boshqarishda raqamli texnologiyalardan foydalanish samaradorligi.....142
ERGASHEV ASADBEK ULUG‘BEK O‘G‘LI, TURSUNOV G‘IYOS SUNNAT O‘G‘LI
Meva-sabzavotlarni qayta ishlashda hosil bo‘ladigan ikkilamchi resurslarni biotexnologik qayta ishlash va ulardan samarali foydalanish.....148

RASULOV XAMIDJON YAKUBOVICH
Raqamli texnologiyalar va CRM tizimlarining kichik biznesdagi o‘rni.....155
BOZOROVA MUHABBAT TOXTAYEVNA
Korxonalarda davr xarajatlarini buxgalteriya hisobini tashkil etish va uning tahlili.....168
YULDASHOV ABDUMALIK ILXOMOVICH
Ekoturizmning hududiy iqtisodiy rivojlanishga ta’sirini ekonometrik baholash.....185
YULDASHOV ABDUMALIK ILXOMOVICH
Ekoturizmning hududiy iqtisodiy rivojlanishdagi rolini baholashning nazariy-metodologik asoslari.....192
MUHAMMADIEV NAUFALBEK AZIZXON O‘G‘LI
Elektron tijoratda sun’iy intellektdan foydalanishning kichik biznes savdo hajmiga ta’siri.....202
АБДУЛЛАЕВ АКМАЛЖОН АБДУЖАЛИЛОВИЧ
Процедура нормирования частных показателей при оценке ресурсного потенциала аграрного сектора: сравнительный анализ методов и обоснование выбора.....210
XASANOVA RUXSORA RASULJON QIZI
O‘zbekistonda elektron tijoratni rivojlantirishning hududiy xususiyatlari va iqtisodiy samaradorligini oshirish.....223
UMAROVA XUSNORA DILMUROD QIZI
Orolbo‘yi mintaqasida xizmat ko‘rsatish korxonalarini moslashuvchan (adaptiv) boshqarishning ma’lumotlarga asoslangan modelini takomillashtirish.....229
АБДУЛЛАЕВ АКМАЛЖОН АБДУЖАЛИЛОВИЧ, ХОЛБЕКОВ ЖУРЪАТ АБДИНАБИЕВИЧ
Теоретико-методологические основы оценки ресурсного потенциала аграрного сектора: концептуальный подход и методика интегральной оценки.....234
UMARALIYEV DIYORBEK SHUKIRALI O‘G‘LI
Tomchilatib sug‘orish texnologiyasini joriy etishning fermer xo‘jaliklari xarajat va daromadlariga ta’siri: subsidiya samaradorligining iqtisodiy bahosi (2019–2025 yillar).....247
MIRAXMEDOVA KAMOLA
O‘zbekistonda turizm korxonalarini strategik boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish.....254
RAVSHANOVA ORZIGUL INOYAT QIZI
O‘zbekistonning xalqaro soliq tizimiga integratsiyasi: BEPS minimum standartlari va ularning milliy soliq siyosatidagi ahamiyati.....261
IRGASHEV ABBOS JUMANAZAROVICH
Anor yetishtirish va sotish qiymat zanjirida ishtirokchilarning daromadlari ulushini iqtisodiy baholash.....274
BAXADIR ADILCHAEV
Agroturizm qishloq iqtisodiyotini diversifikatsiya qilish va hududlarning barqaror rivojlanish vositasi sifatida.....283
XO‘JAMOVA LATOFAT ASADULLAEVNA
Yashil iqtisodiyot sharoitida agrobiznesda innovatsion jarayonlarni boshqarishning o‘ziga xos xususiyatlari.....290
BOZOROV BOBUR HAQBERDIYEVICH
Qurilishni moliyalashtirish samaradorligiga narx omillarining ta’sirini ekonometrik baholash.....297
RAVSHANOVA ORZIGUL INOYAT QIZI
Chegaralararo soliq munosabatlari: muammolar va rivojlanish istiqbollari.....307

KILICHEV ALISHER AKRAMOVICH
O‘zbekiston kimyo sanoati aksiyadorlik jamiyatlarida mavsumiylikning moliyaviy barqarorlikka ta’siri: panel tahlil (2018–2026-yillar)……322
IRGASHEV ABBOS JUMANAZAROVICH
Surxondaryo viloyatida anor ishlab chiqarish va sotish samaradorligini oshirish imkoniyatlari……331
ЛЯМКИНА ВИКТОРИЯ АЛЕКСАНДРОВНА, НАБИЕВА АНОРГУЛ МУХАМЕТКАЗИЕВНА
Механизмы трансформации и управления предпринимательским университетом в условиях цифровой экономики……338
YUSUFALIYEV OLIMJON ABDURAXMONOVICH
Aholi farovonligini oshirishda tadbirkorlik faoliyati samaradorligini baholash metodologiyasini takomillashtirish……347
SAYITQULOV JAHONGIR ILHOMOVICH
Tijorat banklarida raqamli bank xizmatlarini takomillashtirish istiqbollari……358
KILICHEV ALISHER AKRAMOVICH
Mavsumiy moliyaviy siklni identifikatsiyalash va moliyaviy barqarorlikning mavsumiy tuzatilgan ko‘rsatkichlari (mineral o‘g‘itlar ishlab chiqaruvchi korxona misolida)……365
QODIROV ZOHIDJON ERALIEVICH
Suv resurslarini boshqarishning iqtisodiy mohiyati va tamoyillari……373
ZAFAR QODIROV ABDIVAXOBOVICH
Long-term asset valuation and accounting in Uzbekistan: a comparative analysis of national accounting standards……381
SHAVQIDINOVA DILNAVOZ
AQSH va Yevropa ittifoqi mamlakatlari organik meva-sabzavotlar sertifikatlaridagi farqlar……389
KUBAYEV DJASUR ABDUMUMINOVICH
Iqtisodiyotni raqamlashtirishda yer resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish omillari……395
IBODILLAYEV HABIBULLA ABDULLAYEVICH
Madaniy meros obyektlarida turizm tadbirkorligini rivojlantirish orqali aholi bandligini ta’minlash yo‘llari……401
SHAVQIDINOVA DILNAVOZ
IFOAM – organics international: organik standartlar, sertifikatlash, organik bozor va siyosat bo‘yicha statistik tahlili……407
MAYLIYEVA SADOQAT SAFAYOZOVNA
Mintaqada tadbirkorlik salohiyatidan samarali foydalanishning ustuvor yo‘nalishlari (Xorazm viloyati misolida)……413
SHIRINOV UCHQUN ABDUXALILOVICH
MHXS talablari asosida tashqi segmentar hisobotni shakllantirish metodikasi..421
ABDINAZAROV XUSAN SHAYMANOVICH, NORQOBILOVA FERUZA ABDUXOMIDOVNA
Klasterlash va infratuzilma o‘rtasidagi bog‘liqlikni ekonometrik modellashtirish……430
SA’DULLAYEVA SAYYORA NASILLO QIZI
Neft-gaz sanoati korxonalarida moddiy xarajatlarning kompleks tahlili……439
ABDINAZAROV XUSAN SHAYMANOVICH, NORQOBILOVA FERUZA ABDUXOMIDOVNA
Klasterlashni rivojlantirishning tashkiliy mexanizmlari……447

SATTAROV SHUXRAT XASANOVICH
O‘zbekistonda xizmatlar sohasining rivojlanishi va diversifikatsiya tendensiyalari……458
KAMALKARIEVA NILUFAR XALIKBEKOVNA
Qurilish materiallari korxonalarida yangi mahsulotlarni o‘zlashtirish va sifatni oshirishning iqtisodiy samaradorligini baholash……467
СЕЙТНАЗАРОВ БАХАДИР МУРАТБАЕВИЧ
Экономическая оценка устойчивого развития аграрного сектора в условиях дефицита водных ресурсов (на примере Республики Каракалпакстан)……475
TURDIYEV ULUG‘BEK QAYUMOVICH
Sanoat o‘sishining uzoq muddatli rivojlanish tendensiyalarini aniqlash……484
OBLOQULOV ABDURAUF OLIMJON O‘G‘LI
Institutsional iqtisodiyot va iqtisodiy o‘sish: rasmiy va norasmiy institutlarning roli……493
JUMANAZAROV KODIRJON SALYAYEVICH
Sanoat korxonalarida raqamli strategiyani shakllantirishning metodologik yondashuvlari……501
NARMAMATOV IXTIYAR BAXTIYAROVICH, SHERMATOVA NARGIZA ZAFAR QIZI
Zamonaviy bozor sharoitida xizmat ko‘rsatish sohasi subyektlarining iqtisodiy barqarorligini ta’minlash strategiyalari……512
ALIYEV AZIM TOLIB O‘G‘LI
Aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatini boshqarish usullari va uslublarini takomillashtirish: nazariy-amaliy tahlil va modellashtirish……518
ABDULLAYEVA AZIZA MURAT QIZI
Ipoteka kreditlashning nazariy asoslari va xorijiy modellari: AQSH, Germaniya, Qozog‘iston va Malayziya tajribasi……528
YUNUSOV BEGENCH MAVLANBERDIEVICH, MINASIPOV BURXAN BAXTIYOROVICH
Suv xo‘jaligi infratuzilmasidan samarali foydalanish — iqtisodiy barqarorlikning muhim omili……539
АЙТБАЕВА ГУЛЬЗАДА КУАНЫШБАЕВНА
Эффективные механизмы государственно-частного партнерства в сфере услуг……546
SADIQOV ZAFARBEK ADILBEKOVICH
Banklarda likvidlik ko‘rsatkichlarini buxgalteriya hisobi ma’lumotlari asosida tahlil qilish……554
ODILOVA DILNOZA BARNAYEVNA
Milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirishda intellektual kapitalning ko‘p omilli ta’sir mexanizmini takomillashtirish……563
IBODULLAYEV DOSTON SOBIRJON O‘G‘LI, DJURAYEV BEKZOD BEKMATOVICH
Sutchilik fermer xo‘jaliklarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mexanizmini takomillashtirish va ozuqa bazasini rivojlantirish istiqbollari……574
QULMATOV CHORI ANOROVICH
Korxonalar moliyasini nazorat qilishning uslubiy asoslari……582
YAKUPOVA AYZADA NIZAMATDINOVNA
Agrar sohada barqaror rivojlanish mexanizmlarining xorijiy tajribasi va uni O‘zbekiston sharoitiga moslashtirish……590
XUDAYBERGANOV ZOXIDJON DJURAKULOVICH
Xizmat sohasida raqobatbardoshlik nazariyalari evolyutsiyasi va ularning raqamli iqtisodiyotdagi talqini……602
XONTO‘RAYEV IBROXIM ABDIKAMOL O‘G‘LI
Oliy ta’limda sun’iy intellekt asosidagi intellektual axborot tizimlaridan foydalanish……613

UO‘K: 336.6:657.6

KORXONALAR MOLIYASINI NAZORAT QILISHNING USLUBIY ASOSLARI

QULMATOV CHORI ANOROVICH
Toshkent iqtisodiyot va texnologiyalar universiteti
Iqtisodiyot kafedrasi dotsenti
E-mail: chori.kulmatov@uztitu.uz

Annotatsiya. Maqolada iqtisodiy islohotlar sharoitida korxonalar moliyasini nazorat qilishning uslubiy asoslari o‘rganilgan. Tadqiqotning maqsadi – davlat moliyaviy nazoratining korxonalar moliyaviy holati va moliyaviy natijalarini baholashdagi o‘rnini asoslash hamda uni samarali tashkil etish yo‘nalishlarini aniqlashdan iborat. Tadqiqotda tizimli va qiyosiy tahlil, normativ-huquqiy hujjatlarni o‘rganish, mantiqiy umumlashtirish va guruhlash usullaridan foydalanilgan. Natijada moliyaviy nazorat shakllari o‘tkazilish reglamenti, vaqti, subyektlari va obyektlari bo‘yicha tasniflangan; moliyaviy natijalar nazoratining asosiy yo‘nalishlari sifatida daromad va xarajatlarning haqqoniyligi, hisobot ma’lumotlarining bosh kitob va jurnal-orderlarga mosligi, tannarxga olib borilgan xarajatlar asosliligi hamda asosiy faoliyatga bog‘liq bo‘lmagan zararlar sabablarini tekshirish ko‘rsatilgan. Korxonalar moliyaviy hisobotining ishonchliligini mustaqil nazorat orqali ta’minlash va foyda o‘zgarishiga ta’sir etuvchi omillar tahlilini kuchaytirish zarurligi asoslangan.
Kalit so‘zlar: moliyaviy nazorat, davlat moliyaviy nazorati, korxona moliyasi, moliyaviy natijalar, daromad va xarajatlar, foyda, moliyaviy hisobot, audit, moliyaviy holat.

Аннотация. В статье рассматриваются методические основы контроля финансов предприятий в условиях экономических реформ. Цель исследования – обосновать роль государственного финансового контроля в оценке финансового состояния и финансовых результатов предприятий и определить направления его эффективной организации. Использованы методы системного и сравнительного анализа, изучения нормативно-правовых актов, логического обобщения и группировки. В результате формы финансового контроля классифицированы по регламенту, времени проведения, субъектам и объектам контроля; в качестве основных направлений контроля финансовых результатов выделены проверка достоверности доходов и расходов, соответствия отчётных данных главной книге и журналам-ордерам, обоснованности расходов, относимых на себестоимость, а также причин убытков, не связанных с основной деятельностью. Обоснована необходимость обеспечения достоверности финансовой отчётности предприятий посредством независимого контроля и углублённого анализа факторов изменения прибыли.
Ключевые слова: финансовый контроль, государственный финансовый контроль, финансы предприятия, финансовые результаты, доходы и расходы, прибыль, финансовая отчётность, аудит, финансовое состояние.

Abstract. The article examines the methodological foundations of controlling enterprise finances in the context of economic reforms. The aim of the study is to substantiate the role of state financial control in assessing the financial condition and financial results of enterprises and to identify directions for its effective organization. The study employs systemic and comparative analysis, a review of legal and regulatory acts, logical generalization and grouping. As a result, forms of financial control are classified by regulation, timing, subjects and objects of control; the verification of the reliability of revenues and expenses, the consistency of reported data with the general ledger and journal-orders, the validity of costs charged to production cost, and the causes of losses unrelated to core activities are identified as the main directions of controlling financial results. The paper substantiates the need to ensure the reliability of enterprise financial statements through independent control and in-depth analysis of the factors driving changes in profit.
Keywords: financial control, state financial control, enterprise finance, financial results, revenues and expenses, profit, financial statements, audit, financial condition.

2026-yil, oktabr.
№10-son.
ISSN: 3060-5245

KIRISH

Iqtisodiy islohotlar davrida davlat moliya aktivlarini boshqarishda davlat moliyaviy nazorati muhim hisoblanadi. Davlat, korxona va tashkilotlarning barcha moliyaviy faoliyati ustidan turli darajadagi qonunchilik va ijroiya hokimiyati organlari, shuningdek, maxsus tashkil etilgan muassasalar tomonidan moliyaviy nazorat amalga oshiriladi. Bu nazorat pul fondlarini shakllantirish va ulardan foydalanish jarayonida moliyaviy-iqtisodiy qonunchilikka rioya etilishi, moliyaviy-xo‘jalik operatsiyalarining muntazam samaradorligini baholash va amalga oshirilgan xarajatlarning maqsadga muvofiqligi ustidan nazoratni o‘z ichiga oladi. Iqtisodiyotni rivojlantirishda davlat moliyaviy nazorati u yoki bu moliyaviy harakat yo‘nalishlarini baholaydi va tahlil qilishga asoslangan tizim hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so‘ng, iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida qator islohotlar amalga oshirildi. Bu iqtisodiyotimizni rejali-markazlashgan iqtisodiyotdan bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiyotga o‘tkazish bilan bog‘liqdir. Shunday iqtisodiy sohalardan davlat moliyaviy nazorati sohasida ham islohotlar amalga oshirildi, bir qancha qonun va farmonlar qabul qilindi.

Ittifoq davrida davlat mulkiga asoslangan markazlashgan tizimda hisob va audit vazifasi davlatning yuqori tashkilotlari uchun ma’lumotlarni to‘plash va qayta ishlashdan iborat bo‘lgan. Rejalashtirish, narxni shakllantirish, oldi-sotdi, ishchilarning mehnat haqlari va boshqa shu kabi korxona faoliyati bilan bog‘liq masalalar yuqori idora va tashkilotlar tomonidan hal qilingan edi. Bozor munosabatlariga o‘tilishi bilan korxonalarning iqtisodiy erkinliklari o‘z qo‘llariga o‘tib, moliyaviy nazorat o‘zining haqiqiy vazifasini bajara boshladi. Shu bilan birga, ushbu sohaga tegishli bo‘lgan fanlarda ham, moliyaviy nazoratning iqtisodiy islohotlar davridagi yangi qirralarini ochish bo‘yicha qator ishlar qilinmoqda.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning muhim yo‘nalishlaridan biri iqtisodiyotning real sektori korxonalarining moliyaviy qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirishdan iborat. Bu vazifani bajarishda korxonalarning moliyaviy holatini nazorat qilishni tashkil etish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Davlat moliya nazorati moliya tizimi barcha bo‘g‘inlari resurslarining shakllanishi, taqsimlanishi va foydalanishi ustidan nazorat bo‘lib, davlat tomonidan amalga oshiriladi va ijtimoiy xarakterga egadir. Moliyaviy nazoratni amalga oshirishda davlatning asosiy nazorat organlari ishtirok etadi, korxona va firmalarning moliyaviy faoliyati zarur hollarda tekshiriladi hamda korxonalar faoliyati qanday darajada ekanligi aniqlanadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Moliyaviy nazoratning mazmuni va tamoyillari xalqaro miqyosda Oliy auditorlik organlari xalqaro tashkiloti (INTOSAI) tomonidan qabul qilingan Lima deklaratsiyasida asoslab berilgan bo‘lib, unda nazoratning dastlabki va keyingi, ichki va tashqi shakllari hamda nazorat organlari mustaqilligining ahamiyati

2026-yil, oktabr.
№10-son.
ISSN: 3060-5245

ko‘rsatilgan [3]. Mazkur tasnif keyinchalik milliy moliyaviy nazorat tizimlarini shakllantirishda uslubiy asos bo‘lib xizmat qilgan.

Milliy qonunchilikda korxonalar moliyaviy faoliyatini nazorat qilishning huquqiy asoslari O‘zbekiston Respublikasining Budjet kodeksi [4], “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi [5] va “Auditorlik faoliyati to‘g‘risida”gi [6] qonunlarida belgilangan. Xususan, buxgalteriya hisobi to‘g‘risidagi qonun moliyaviy hisobotning ishonchliligi va to‘liqligiga qo‘yiladigan talablarni, auditorlik faoliyati to‘g‘risidagi qonun esa moliyaviy hisobot haqqoniyligini mustaqil tasdiqlash tartibini belgilaydi.

Mamlakatimiz iqtisodchi olimlarining tadqiqotlarida moliya bozorini rivojlantirish va korxonalarning moliyaviy resurslarini shakllantirish masalalari yoritilgan [1]. Biroq korxonalar moliyaviy natijalarini davlat moliyaviy nazorati nuqtai nazaridan tizimli baholash va nazorat shakllarini aniq mezonlar asosida tasniflash masalalari yetarlicha o‘rganilmagan. Mazkur maqola ushbu bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda tizimli va qiyosiy tahlil, mantiqiy umumlashtirish, guruhlash va tasniflash usullaridan foydalanildi. Tadqiqotning axborot bazasini O‘zbekiston Respublikasining moliyaviy nazorat va buxgalteriya hisobiga oid normativ-huquqiy hujjatlari [4–6], O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining rasmiy ma’lumotlari [2], xalqaro standartlar [3] hamda mavzuga oid ilmiy manbalar [1] tashkil etadi. Moliyaviy nazorat shakllari o‘tkazilish reglamenti, vaqti, subyektlari va obyektlari mezonlari bo‘yicha guruhlandi, moliyaviy natijalar nazorati esa daromadlar, xarajatlar va foyda ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi bog‘liqlik nuqtai nazaridan tahlil qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida iqtisodiyotning real sektori korxonalarining moliyaviy natijalari roli tabiiy ravishda ortib boradi va korxonalar rivojlanishiga quyidagi omillar ta’sir ko‘rsatadi:

– so‘nggi yillarda korxonalar ishlab chiqarish faoliyati natijalarini baholash mezonlari ishlab chiqildi. Hozirgi davrda korxonalar faoliyatining bosh ko‘rsatkichi foyda va rentabellik ko‘rsatkichidir. Bunday jarayon, o‘z navbatida, ulardan o‘zlarining moliyaviy holatini yaxshilashni talab qiladi va rentabellikka erishiladi;

– iqtisodiy islohotlar sharoitida xo‘jalik hisobining hamma tamoyillarini joriy qilish uchun obyektiv sharoit yaratiladi, korxonalar mustaqil faoliyat yuritadi;

– hozirgi iqtisodiy islohotlar davrida korxonalarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimining qisqarishi kuzatiladi. Bu esa, tabiiy ravishda korxonalar moliyaviy holatining ahamiyati ortib borishiga olib keladi;

– banklar tomonidan korxona va tashkilotlar kredit mablag‘lari bilan ta’minlanishi mumkin. Kreditni olish, uni qaytarish (to‘lash) kafolati, o‘z vaqtida uni qaytarish, foydalanganlik uchun foizlarni to‘lash bilan bog‘liq, ya’ni

2026-yil, oktabr.
№10-son.
ISSN: 3060-5245

korxonalarning barqaror moliyaviy holati ularga kredit olish imkoniyatini yaratadi. Bu o‘z navbatida korxona va tashkilotlar moliyaviy holatining roli oshib borayotganligidan darak beradi hamda ijobiy natijalarga erishiladi.

Iqtisodiy o‘zgarishlar korxonalarda ishlab chiqarish samaradorligi, mahsulot va xizmatlarning raqobatbardoshligi, ilmiy-texnikaviy taraqkiyot yutuqlari, ishlab chiqarishni boshqarish va xo‘jalik yuritishning samarali shakllari, noqonuniy harakatlarning bartaraf etilishi va tadbirkorlikning rivojlantirilishi asosida amalga oshirilishini talab qiladi. Kredit mablag‘larini berilishida davlat moliyaviy nazorati organlari olingan mablag‘larni tekshiradi o‘z vaqtida va shartnomada ko‘rsatilgan miqdorda qaytarilishini nazorat qilib boradilar. Kredit mablag‘larining o‘z vaqtida qaytarilmasligi pul aylanishiga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatadi.

Har qaysi yuridik yoki jismoniy shaxs mustaqil ravishda moliyaviy bitimlar tuzish imkoniyatiga egalik huquqini oladi. Bu esa, tadbirkorlikni samarali rivojlantirish uchun eng zarur sharoitlardan bo‘lib, ayni paytda u yuqori tavakkalchilik (xavf-xatar) bilan bog‘liq. Tadbirkorlar va xususiy firmalar oldida birinchi marta moliyaviy ahvol va sheriklarning ishonchliligini baholash, ya’ni sheriklar o‘z majburiyatlari buyicha javob berish uchun yetarli miqdorda mablag‘larga qo‘yilgan mablag‘lar qachon va qanday tezlikda real pulga aylanadi, mulkdan qanchalik samarali foydalanish kabi muammolar paydo bo‘ladi.

Yuqoridagi muammolarni hal qilishda xususiylashtirilayotgan yoki o‘zaro hamkorlik bo‘lgan korxona hisoboti, jumladan moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobotning to‘g‘riligi va moliyaviy ahvoli haqida keng foydalanuvchilar doirasi uchun tayyorlangan maxsus axborotni e’lon qilish lozim, bunda moliyaviy axborotning to‘g‘riligi (aniqligi) mustaqil moliyaviy nazoratchi tomonidan tekshirilgan va tasdiqlangan bo‘lishi zarur.

Davlat moliyaviy nazorati natijasida turli boshqaruv bo‘g‘inlari xo‘jalik subyektlarining haqiqiy moliyaviy holati, soliqlar va budjetdan tashqari ajratmalar bo‘yicha majburiyatlarning bajarilishi, shu bilan birga, budjet mablag‘larining ishlatilishi haqida axborotlarni olishlari lozim. Bunda davlat boshqaruvi idoralari, soliq xizmatlari xo‘jalik subyektlari, ta’sischilar, aksiyadorlarning manfaatlari bir-biriga mos kelmaydi. Yuqoridagilarning barchasi o‘z manfaatlari yo‘lida yuqori foydaga ega bo‘lishni ko‘zlaydi.

Davlat budjeti o‘z xarajatlarini qoplash uchun ko‘proq soliq va har xil yig‘imlarni olishdan manfaatdor bo‘lsa, xo‘jalik subyektlari yuqori foyda olishni, budjetga soliqlar va har xil yig‘imlarni kamaytirish yo‘llarini izlaydi. Ayrim hollarda bunga ishlab chiqarish hajmini oshirish va mahsulot sifatini yaxshilash, texnologiyalarni takomillashtirish hisobiga emas, balki turli xil qallobliklar, turli noqonuniy yo‘llar, budjetga soliq va yig‘imlari kamroq to‘lash hisobiga erishishga harakat qiladilar. Ko‘pincha bu moliyaviy natijalar bo‘yicha hisobot ma’lumotlarini xato ko‘rsatish hisobiga ham amalga oshirilmoqda. Axborot manbalarini olishda turli xil subyektlarning manfaatlari ham mos keladi. Banklar va qarz beruvchilar uchun subyektlarning daromadlari va to‘lovga qobilligi

2026-yil, oktabr.
№10-son.
ISSN: 3060-5245

haqidagi haqqoniy axborotlar juda muhim. Ularni, asosan, qarzlar va foiz to‘lovlarini uzish bo‘yicha subyektlarning imkoniyatlari qiziqtiradi.

Iqtisodiy ta’limotlarda, jumladan, uning tarkibiy qismi bo‘lgan hisob ta’limotlarida moliyaviy natijalar doimo dolzarb va munozarali masalalardan bo‘lib kelgan. Hozirgi iqtisodiy islohotlar sharoitida bu muammolar dolzarbligicha qolmoqda. Iqtisodiyotni, shu jumladan uni boshqarish vositalaridan biri bo‘lgan buxgalteriya hisobini isloh qilish moliyaviy natijalar hisob tizimiga tubdan o‘zgarishlar kiritdi. Hozirgi kunda moliyaviy natijalar kategoriya sifatida yangicha mazmunga ega bo‘ldi, uni tasniflashning yangi belgilari vujudga keldi. Ularning hisob tizimi ilk bora soliq tizimi bilan uzviy uyg‘unlashtirildi. Moliyaviy natijalarning o‘rni, shakli, davri va javobgarlik belgilari bo‘yicha hisob obyektlari olinish tartibi asosida turkumlanishi va uning hisobini yuritish zarurati paydo bo‘ldi.

Moliyaviy natijalar nazorati moliyaviy hisobot auditida muhim o‘rinni egallaydi. Chunki moliyaviy hisobotning asosiy maqsadi korxona faoliyati va uning moliyaviy natijalari to‘g‘risida haqqoniy ma’lumot taqdim etish hisoblanadi. Hozirgi davrda mamlakatimizda kuzatilayotgan makroiqtisodiy barqarorlikning muhim belgilaridan bo‘lgan defitsit va profitsit ko‘rsatkichlari hisobga olinib, bu ko‘rsatkichlardan oshish hajmi, ya’ni davlat budjetining profitsit bilan bajarilayotganligi hisoblanadi. Xususan, keyingi yillarda davlat budjeti taqchillik bilan rejalashtirilayotgan bo‘lsa-da, soliqlar bo‘yicha prognoz ko‘rsatkichlarning ortig‘i bilan bajarilishi hamda davlat budjeti xarajatlarini manzilli va maqsadli sarflanishining ta’minlanishi natijasida budjet profitsit bilan ijro etilmoqda. Bu davlat moliyasi tizimidagi barqarorlikni ta’minlanishiga ta’sir etuvchi asosiy omil bo‘lib xizmat qilmoqda. Bu moliyaviy natijalar respublikamiz iqtisodiyotini rivojlanish darajasini ko‘rsatib turibdi.

Korxonalarda moliyaviy natijalar shakllanishida uning tarkibiy qismlari bo‘lgan daromadlar va xarajatlar o‘rtasidagi bog‘liqlik nuqtai nazaridan chuqur tahlil qilinishi maqsadga muvofiq. Shu sababli moliyaviy natijalar nazorati jarayonlarida xo‘jalik faoliyatining daromadlari va xarajatlari bo‘yicha alohida nazorat yo‘nalishlari olib borilib, quyidagilarga asosiy e’tibor qaratiladi. Korxona faoliyatining moliyaviy natijalari, ya’ni foyda yoki zarar bilan yakunlanishi bo‘yicha olib boriladigan chora-tadbirlar amalga oshiriladi.

Davlat moliyaviy nazoratini amalga oshirishda korxona faoliyati foydasining moliyaviy tahlili, uning o‘zgarishiga ta’sir etgan omillarning tahlili, daromadlar va xarajatlarning ijobiy (foydaning ortishi) yoki salbiy (foydaning kamayishi) o‘zgarishi tahlili amalga oshadi. Ma’lum bir faoliyatning zarar bilan yakunlangan hollarida buning sabablari aniqlanadi. Korxona boshqaruvi tomonidan qabul qilingan qarorlarning, tuzilgan bitimlarning qay darajada korxona manfaatlariga mos kelishi ko‘rib chiqiladi.

Moliyaviy hisobot davrida daromad turlariga mos holda xarajatlarning turlari bo‘yicha miqdoriy va nisbiy o‘zgarishi, tushumlarning haqqoniyligi, hisobotlarda to‘liq aks ettirilganligi, ularning bosh kitob va jurnal orderlaridagi ma’lumotlarga mosligi, ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatishda korxona

2026-yil, oktabr.
№10-son.
ISSN: 3060-5245

tomonidan qo‘llanilgan me’yoriy foyda ustamalarining asosli qo‘llanishi, baho mexanizmini bozor munosabatlariga asoslangan holda tartibga solish, ularning respublikamizda amalda bo‘lgan qonunchilikka mosligi, barcha tushumlar bo‘yicha tegishli buxgalteriya provodkalarining to‘g‘ri berilishi ko‘rib chiqiladi. Buxgalteriya provodkalari bajarilgan ishlar bo‘yicha aniq ko‘rsatilishi lozim bo‘lib, aniq hisob-kitoblar amalga oshishini ta’minlab beradi.


Moliyaviy natijalar nazoratining asosiy yo‘nalishlari va ularda tekshiriladigan masalalar 1-jadvalda umumlashtirildi.

1-jadval

Korxonalarda moliyaviy natijalar nazoratining asosiy yo‘nalishlari

Nazorat yo‘nalishi	Tekshiriladigan asosiy masalalar
Daromadlar	Tushumlarning haqqoniyligi va hisobotda to‘liq aks ettirilganligi; bosh kitob va jurnal-orderlarga mosligi; qo‘llanilgan me’yoriy foyda ustamalarining asosliligi; buxgalteriya provodkalarining to‘g‘riligi
Xarajatlar	Xarajatlarning haqqoniyligi va hisob registrlari hamda birlamchi hujjatlarga mosligi; tannarxga olib borilgan xarajatlarning asosliligi; davr xarajatlarining maqsadga muvofiqligi
Moliyaviy natija (foyda yoki zarar)	Foydaning moliyaviy tahlili; foyda o‘zgarishiga ta’sir etgan omillar; daromad va xarajatlarning ijobiy yoki salbiy o‘zgarishi
Asosiy faoliyatga bog‘liq bo‘lmagan zararlar	Moliyaviy jarimalar; muddati o‘tgan debitorlik qarzlarining hisobdan chiqarilishi; manfaatsiz bitimlar natijasida yetkazilgan zarar

Manba: muallif ishlanmasi.



Manba: muallif ishlanmasi.

1-rasm. Moliyaviy nazorat shakllarining tasnifi

1-rasmdan ko‘rinadiki, davlat moliyaviy nazoratini amalga oshirish reglamentiga ko‘ra, o‘tkazilish vaqtiga ko‘ra, nazoratning subyektlariga ko‘ra va nazoratning obyektlariga ko‘ra tasniflanadi. Bu mezonlar orqali moliyaviy nazorat amalga oshadi.

2026-yil, oktabr.
№10-son.
ISSN: 3060-5245

Nazorat tarkibi o‘zgarishi, korxona tarkibi tuzilmalari bo‘yicha ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish, mahsulot (ish, xizmat) sotish hajmining o‘zgarishi tahlili, daromadlar o‘zgarishiga ta’sir qilgan omillarni chuqur tahlil qilish, xo‘jalik subyekti moliyaviy xo‘jalik faoliyatida xarajatlarning haqqoniyligi, hisobotlarda to‘liq aks ettirilganligi, ularni bosh kitob va jurnal orderlari, hisob registrlari, birlamchi hujjatlardagi ma’lumotlarga mosligi hamda ishlab chiqarish va xizmatlar ko‘rsatishda korxona tomonidan tannarxga olib borilgan xarajatlarning asosliligi, shu bilan birga, boshqa davr xarajatlarining maqsadga muvofiqligi, ularning respublikamizda amalda bo‘lgan qonunchilikka mosligi ham ko‘rib chiqiladi.

Moliyaviy tahlilda asosiy faoliyatga bog‘liq bo‘lmagan va ko‘zda tutilmagan zararlarning asosliligi, ya’ni ularning yuzaga kelish sabablari va bunga yo‘l qo‘ygan mas’ul xodimlarning ishtirok darajasi ko‘rib chiqiladi. Masalan, moliya, soliq va monopoliyaga qarshi qonunchilik bo‘yicha tekshiruvlar natijasida korxonaga qo‘llanilgan moliyaviy jarimalar, muddati o‘tgan debitorlik qarzlarining korxona zarariga olib borilib hisobdan chiqarilishi tahlil qilinadi. Shuningdek, manfaatsiz bitimlar natijasida korxonaga zarar yetkazilganligi – korxona aktivlari, moddiy boyliklari va qimmatli qog‘ozlarining bozor baholariga e’tibor berilmagan holda balans qiymatidan arzon sotilishi yoki korxona ehtiyojlari uchun moddiy qimmatliklarning bozor narxidan ancha qimmat sotib olinishi holatlari aniqlanadi. Bundan tashqari, xarajatlar tarkibining o‘zgarishi hamda korxona tarkibiy tuzilmalari bo‘yicha ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish hajmiga mos holda xarajatlar (tannarx, davr xarajatlari, sotish xarajatlari) ham ko‘rib chiqiladi.

Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, bozor munosabatlariga o‘tish sharoitida moliyaviy nazoratning mazmuni o‘zgarib, u yuqori idoralar uchun ma’lumot to‘plash vositasidan korxona moliyaviy holatining haqqoniyligini ta’minlaydigan mustaqil mexanizmga aylanmoqda. Davlat, korxona, ta’sischilar, banklar va boshqa manfaatdor tomonlar manfaatlarining bir-biriga mos kelmasligi moliyaviy hisobot ma’lumotlarini buzib ko‘rsatish xavfini yuzaga keltiradi. Shu sababli nazorat faqat soliq va budjet majburiyatlarining bajarilishi bilan cheklanmasdan, daromad va xarajatlar tarkibi, foyda o‘zgarishiga ta’sir etuvchi omillar va boshqaruv qarorlarining korxona manfaatlariga muvofiqligini ham qamrab olishi lozim. Mazkur yondashuv moliyaviy nazoratni hisob va soliq tizimi bilan uyg‘unlashtirish hamda kreditorlar va investorlar uchun ishonchli axborot muhitini shakllantirish imkonini beradi.

XULOSA

Tadqiqot natijasida quyidagi xulosalarga kelindi.

Birinchidan, iqtisodiy islohotlar davrida korxonalarning moliyaviy mustaqilligi kengayishi va davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimining qisqarishi ularning moliyaviy holati va uni nazorat qilishning ahamiyatini oshiradi.

Ikkinchidan, davlat moliyaviy nazorati o‘tkazilish reglamenti, vaqti, subyektlari va obyektlari bo‘yicha tasniflanib, ushbu mezonlar nazoratni tashkil etishning uslubiy asosini tashkil etadi.

Uchinchidan, moliyaviy natijalar nazoratida daromad va xarajatlarning haqqoniyligi, ularning bosh kitob, jurnal-orderlar va birlamchi hujjatlarga mosligi, tannarxga olib borilgan xarajatlar asosliligi hamda asosiy faoliyatga bog‘liq bo‘lmagan zararlar sabablarini tekshirish ustuvor yo‘nalishlar hisoblanadi.

Korxonalar moliyaviy hisobotlarining haqqoniyligini mustaqil nazoratchilar tomonidan tasdiqlash va foyda o‘zgarishiga ta’sir etuvchi omillar tahlilini nazorat amaliyotiga muntazam joriy etish moliyaviy nazorat samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Djumaniyazov, Sh. R. (2022, 27-yanvar). Moliya bozorini rivojlantirishda yevrobondlarning o‘rni. “Birja” iqtisodiy gazetasi.

2. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi. (2026). Rasmiy veb-sayt. https://www.minfin.uz

3. INTOSAI. (1977). The Lima Declaration of Guidelines on Auditing Precepts. Vienna: International Organization of Supreme Audit Institutions.

4. O‘zbekiston Respublikasining Budjet kodeksi. (2013-yil 26-dekabr, O‘RQ-360-son). https://lex.uz

5. O‘zbekiston Respublikasining “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi Qonuni. (2016-yil 13-aprel, O‘RQ-404-son). https://lex.uz

6. O‘zbekiston Respublikasining “Auditorlik faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni. (2021-yil 25-fevral, O‘RQ-677-son). https://lex.uz

2026-yil, oktabr. №10-son.

Mas’ul muharrir: Beglayev Uchqun
Musahhih: Boltayev Nurali
Sahifalovchi va dizaynerlar: Normurodov Sarvar,
Sharipov Shoxruh

© Materiallar ko‘chirib bosilganda “Agrobiznes, fan va texnologiyalar” ilmiy-amaliy elektron jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas’ul hisoblanadi. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqolalar, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: licht-1989@mail.ru
Jurnalning telegram manzili: t.me/agrobiznes_elektronjurnal
Telefon raqami: +998939018320, +998934393000
Jurnal rasmiy sayti: https://www.agrobiznesjournal.uz

“Agrobiznes, fan va texnologiyalar” ilmiy-amaliy elektron jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 30.11.2024-yildagi №364/5-sonli qarori bilan 08.00.00-Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha, 08.05.2025-yildagi №370/5-sonli qarori bilan 06.00.00-Qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha “Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxati”ga kiritilgan.

“Agrobiznes, fan va texnologiyalar” ilmiy-amaliy elektron jurnali 2023-yil 23-maydan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669225** reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
Litsenziya raqami: №083688

**Manzilimiz: Toshkent viloyati, Qibray tumani,
Universitet ko‘chasi, 2-uy**